

FARG'ONA SHAHRI FLORASIDA UCHRAYDIGAN ACHCHIQ ERMON SHUVOG'I (*ARTEMISIA ABSINTHIUM* L.). HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

Jumaboyeva Feruzabonu Ravshanbek qizi

Farg'ona davlat universiteti, biologiya yo'nalishi 3-kurs talabasi

Achchiq ermon (*Artemisia absinthium* L.). Achchiq ermon O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida, xususan adir va cho'l mintaqalarida ham tarqalgan. Achchiq ermon ariq bo'ylarida, yo'l yoqalarida, tomorqalarda, uy yaqinlarida etarlicha nam bo'lgan tuproqlarda o'sadi.

O'simlik urug'lari yordamida, qo'shimcha yon kurtaklari orqali ham ko'payadi. Yorug'sevlar o'simlik bo'lib, hosildor va nam tuproqlarni xush ko'radi.

Xom-ashyo tayyorlanishi va uning sifati. Achchiq ermon o'simligi xom-ashyosi yig'ish gullashining boshlanishida iyul-avgust oylaridan boshlanadi. Bunda to'pgullari qaychi orqali poyaning dag'al qismini qoldirib yig'iladi. Barglari esa gullashidan boshlab mayning oxiri iyunning boshlarigacha teriladi.



O'simlik va uning bargi havo yaxshi almashinib turadigan xonalarda, bostirmalar ostida, bo'g'otlarda yupqa qog'oz ustiga terilgan holda quritiladi, bunda

ular vaqti-vaqti bilan ag'darilib turiladi. Quruq massaning chiqishi 24-25% ni tashkil etadi.

Davlat farmokopeyasi talablariga ko'ra achchiq ermon o'simligi xom-ashyosiga quyidagi talablar qo'yiladi: namlik 13%, umumiy kul 3%, spirtda eriydigan ekstraktiv moddlar miqdori 20% (barglar uchun 25%); organik qo'shimchalar 2%, mineral qo'shimchalar 1,5% dan ortiq bo'lmasligi lozim.

Xom-ashyo o'ram va qoplarga joylanadi. O'ramlarning og'irligi 50 kg, qoplarniki 25 kg. Saqlash muddati 2 yilni tashkil etadi.

Tibbiyotda qo'llanilishi va kimyoviy tarkibi. Achchiq ermon dorivor preparatlari ishtahani ochish va xazm qilish organlari faoliyati yaxshilash uchun qo'llaniladi. Oshqozon osti bezi kasalliklari va o't kasalliklari bilan og'rigan bemorlar o'simlik preparatlaridan foydalanganida og'riqlarning yo'qolishi, ishtahaning ochilishi, qabziyatning yo'qolishi kuzatiladi.

Achchiq ermon preparatlaridan doimiy foydalanish engil zaharlanishga olib kelishi mumkin.

Achchiq ermon o'simligi va barg xom-ashyosi tarkibida 2% gacha efir moylari mavjud. Uning tarkibiga tuyil spirt, uglevodorodlar (tuyon, pinen, kadenin va b.), monotsiklik katolaktolonlar kiradi. Bundan tashqari o'simlik flavonoidlar, oshlovchi moddalar, organik kislotalar, karotin va askorbin kislotasini saqlaydi. Absintin va anabsintin achchiq laktonlari kasallik va mikroblarga qarshi kurashish xususiyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buriyev X.CH., Alikulov S.M. O'zbekistonda genetik resurslarni saqlash, samarali foydalanish va boshqarishni tashkil etish. // T.: Fan ziyosi, 2022.- 205 b.
2. Juchenko A.A. Bioraznoobraziye- osnova soxraneniya mirovnyx geneticheskix resursov rasteniy. // Geneticheskkiye resursy lekarstvennyx i aromatcheskix rasteniy: Mat. mejd. konf.- M., 2001.
3. Tolmachyov A.I. Osnovy ucheniya ob arealax. // L., 1962.
4. Yursev B.A. Izucheniye biologicheskogo raznoobraziya: vklad floristiki. // Izucheniye biologicheskogo raznoobraziya metodami sravnitelnoy floristiki: Mat. IV rab. sov. po sravn. floristike.- Berezinskiy biosfernyy zapovednik.- 1993.- SPb., 1998.
5. Sharobitdinovich, T. K., Ravshanovich, O. R. I., & Baxtiyarovna, U. F. (2022). LIPA O 'SIMLIGINING MORFOLOGIYASI VA FIZIOLOGIYASI, FARG'ONA SHAHAR FLORASIDAGI AHAMIYATI. *Farg'ona davlat universiteti*, (5), 63-63.
6. Ravshanovich, O. I. THE WORLD OF PLANTS IN THE URBAN FLORA OF FERGANA CITY.